

OLAM LISONIY MANZARASIDA KONSEPTNING O'RNI

Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi,*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi**University of Business and Science**irodajamoliddinova8@gmail.com***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932024>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek tili konseptosferasida qat'iyat konseptining o'z o'rni borligi, u boshqa konseptlar bilan o'zaro aloqadorlikda ekanligi haqida so'z boradi. Xususan, "qat'iyat" konseptining o'zi ham turli tashkil etuvchi uzvlar va belgilardan iborat bo'lishi, "qat'iyat" konseptining uzvlarini matnlardan to'plangan misollar orqali obyektiv baholanadi.

Kalit so'zlar: Olamning lisoniy manzarasi, konseptosfera, konsept, "qat'iyat" konsepti, "qat'iyat" konseptining uzvlari.

Abstract. This article discusses the specific place of the concept of "determination" within the Uzbek language conceptosphere and its interrelation with other concepts. In particular, it examines how the concept of "determination" consists of various structural components and features. The components of the "determination" concept are objectively analyzed based on examples collected from texts.

Keywords: Linguistic picture of the world, conceptosphere, concept, the concept of "determination," components of the "determination" concept.

Аннотация. В данной статье рассматривается место концепта «решительность» в концептосфере узбекского языка, а также его взаимосвязь с другими концептами. В частности, отмечается, что концепт «решительность» состоит из различных структурных компонентов и признаков. Составляющие элементы концепта «решительность» объективно анализируются на основе примеров, собранных из текстов.

Ключевые слова: языковая картина мира, концептосфера, концепт, концепт «решительность», структурные компоненты концепта «решительность».

Kirish. Olam manzarasi biz va bizni qurshab turgan borliqdan iboratligi ma'lum. Olam manzarasining ongda voqelanishi, aks etishi olamning konseptual manzarasini tashkil etadi. Olam manzarasi hech qachon konseptual manzarada to'laligicha namoyon bo'lmaydi. Zero, cheksiz olamni inson tafakkuri tomonidan butunlay anglanishi mantiqan ham to'g'ri emas. Inson tafakkuri o'zi ang'ay olgan, unga bilish imkoni mavjud olamni ang'aydi va shu tariqa olamning konseptual manzarasi shakllanadi. Xalqlarning yashash sharoitlari, tevarak-atrofi, turmush tarzi, dunyoqarashi, e'tiqodi, madaniyati kabilar hisobiga har bir til egalarida olamning konseptual manzarasi farqli bo'lishi tabiiy. Demak, olam manzarasining bir qismigina konseptual manzarada aks etadi. Bu manzara insonning olam haqidagi bilimlaridan iboratdir. Olamning konseptual manzarasi esa til birliklari orqali turli yo'sinlarda aks etadi. Konseptual manzaraning hammasi ham verbal vositalar orqali ifodalanmasligi mumkin. V.Maslova qayd etganidek, "Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasidan farqli o'laroq, bilish va ijtimoiy faoliyatlar natijalarini aks ettirib doimo o'zgarishda bo'ladi. Biroq olam lisoniy manzarasining ayrim qismlari insonlarning olam haqidagi qadimdan qolgan, eskicha tasavvurlarini uzoq vaqt mobaynida saqlab qoladi. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga

nisbatan boyroq bo‘ladi, chunonchi, uning shakllanishida tafakkurning har xil turlari ishtirok etadi. Turli kishilarda, masalan, turli davrlar, turli ijtimoiy va yosh guruhlari, turli bilim sohalari va h.k.ning vakillarida olamning konseptual manzaralari farqlanishi mumkin. Har xil tillarda so‘zlashuvchi kishilar muayyan sharoitlarda bir-biriga yaqin bo‘lgan olamning konseptual manzaralariga, aksincha, bir tilda so‘zlashuvchi kishilar olamning turli konseptual manzaralariga ega bo‘lishlari mumkin”. Sh.Usmanova bu ikki manzaraning bir-biri bilan bog‘liqligini shunday talqin qiladi: “Olamning konseptual manzarasida umuminsoniy, milliy va shaxsiy o‘zaro munosabatlar bo‘ladi. Olamning konseptual manzarasi bilan olamning lisoniy manzarasi bir-biridan farq qilishiga qaramay, har ikkala manzara o‘zaro bog‘liqdir. Agar til olamning konseptual manzarasi bilan aloqada bo‘lmaganida, u muloqot vositasi rolini bajara olmasdi”.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va kognitiv-lingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Qat‘iyat konseptining semantik uzvlari badiiy adabiyotlar, publitsistik va rasmiy-huquqiy matnlardan yig‘ilgan misollar asosida aniqlandi. Olingan til birliklari konseptual tahlil asosida guruhlarga ajratildi.

Natijalar. Olamning lisoniy manzarasida turli konseptlardan iborat bo‘ladi. Konseptlar xususida yuqorida fikrlar bildirdik. Muayyan tildagi konseptlar yig‘indisi esa konseptosferani tashkil etadi. Konseptosfera milliy mentalitetni o‘zida aks ettiradi. Ma‘lum bir tillarning konseptosferalari o‘xshash bo‘lishi mumkin. Lekin baribir milliy mentalitetning o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan muayyan farqliklar kuzatiladi. O‘zbek tilining konseptosferasida qat‘iyat konseptining ham o‘z o‘rni bo‘lib, u boshqa konseptlar bilan o‘zaro aloqadorlikdadir. Quyidagi rasmda tasviri mavjud bo‘lmagan abstrakt jarayonni tasvirlashga harakat qildik.



Bu chizma orqali juda murakkab aqliy jarayonni to‘laligicha ifodalash mumkin emas. Lekin biz konseptlar o‘zaro bog‘liq holda konseptosferani tashkil etishini ko‘rsatmoqchi

bo'ldik. O'zbek tilida ham "qat'iyat" konsepti boshqa konseptlar bilan uzviy aloqada bo'lib, barqarorlik, mardlik, ishonch, erkak, sadoqat, vafo, sabr, maqsad, shijoat konseptlari bilan aloqadadir. Muayyan bir til birligi u yoki yoki bu konseptni ifodlashi ham mumkin. Masalan, *matonat* leksemasi bir vaqtning o'zida ham "qat'iyat", ham "sabr", ham "sadoqat" konseptlarini ifodalashi mumkin.

"Qat'iyat" konseptining o'zi ham turli tashkil etuvchi uzvlar va belgilardan iborat bo'ladi. "Qat'iyat" konseptining uzvlarini matnlardan to'plangan misollar orqali quyidagicha ajratdik:

1. So'zdagi qat'iylik:

Dedi qat'iy va keskin:

Qaytadan qurmoq kerak!

Haykal ustiga po'stin,

Boshiga qalpoq kerak (E.Vohidov).

2. Amaldagi qat'iylik: *Qat'iy belgilangan soliq teng ulushlarda har oyda, kalendar oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechikmasdan to'lanadi. Ushbu rejimga o'tish uchun kelgusi oy boshlanishidan kamida 10 kun oldin soliq organlariga xabarnoma yuborish zarur (Qarordan)*

3. Ovozdagi qat'iylik: — *Yo'q, — dedilar oyim qat'iy qilib, — Sulton bo'lsa, qo'rqib-netib o'tirmasdi, kirardi (Murod Mansur. Judolik diyori).*

4. Tartibning qat'iyligi: *Umuman, byustning katta-kichikligi, nimadan yasalgani-yu qaysi qatordan joy olgani — marhumning inqilob g'alabasiga qo'shgan hissasi, o'shanda egallagan mansab-martabasi, eng muhimi, ulug' dohiyga nechog'li uzoq-yaqin bo'lganiga bog'liq. Hammasi qat'iy tartib, hisob-kitob bilan joylashtirilgan. Ofarin va tasanno! (E.A'zam. Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati).*

5. Harakatlardagi qat'iylik: *Akam barmog'ini labiga bosdi:*

— *Jim, eshitsa og'rinadi, — deb shivirladi, — o'zi shuni istasa nima deysan.*

Bo'lmasa, har izzat-ikromlarga haqli.

— *Yo haydalganmi, o'sha ishi ochilib? — dedim.*

Akam qat'iy bosh tebradi:

— *Bilishmaydi hatto (E.A'zam. Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati).*

6. Qarorning qat'iyligi: *Shu so'zlarni aytgach, uchinchi ministr hamyostiqlay papkasini qo'ltiqlab, minbardan tushdi. Gap tamom, bahsga boshqa o'rin yo'q, hukm qat'iy deganday gerdayib borib o'z joyiga o'tirdi (E. Vohidov).*

7. Qaroridagi qat'iylik: *Tovarish Baxtiyor ham katta idoralarda ishlashini, o'ziyam juda yaxshi yigit, Moskovlarda o'qigan zo'r jurnalist ekanini aytib necha bor dalolat qilib ko'rdim, ammo bu o'lgur tovarish Yak qarorida qat'iy edi: nu i chto, tovarish Erkin aka, qoida shunday! (E.A'zam. Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati).*

8. Tartibning qat'iyligi: *She'r kutilmaganda keladi. U tabiatning shoiriga sovg'asi. Shoir xo'jaligi qat'iy rejaga bo'ysunmaydi. Misol uchun, ertaga erta bilan soat o'nda*

ko'chada ketayotib bir qizni uchrataman-u unga ko'ngil qo'yaman, deb aytib bo'lmaydi (Erkin Vohidov).

Yuqorida keltirilgan tushunchalar “qat’iyat” konseptining freymlari sifatida baholanishi mumkin.

Muhokama. Olingan natijalar “qat’iyat” konseptining o‘zbek konseptosferasida markaziy o‘rinlardan birini egallashini ko‘rsatadi. Ushbu konsept milliy mentalitet va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va ma’naviy portretini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qat’iyat ba’zi holatlarda mustaqil konsept sifatida, ba’zan esa boshqa konseptlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “qat’iyat” konsepti o‘zbek tilida so‘z, harakat, ovoz, qaror va ijtimoiy tartib bilan bog‘liq holatlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu konsept barqarorlik, sabr, matonat, sadoqat, ishonch va shijoat kabi konseptlar bilan uzviy aloqada ekanligi aniqlandi. Qat’iyatning turli nutqiy va pragmatik ko‘rinishlari uning ko‘p qirrali konsept ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. Demak, o‘zbek tilida qat’iyat konsepti boshqa konseptlar bilan birgalikda kotseptosferada o‘ziga mos o‘rinda joylashadi, hamkorlik qiladi. U qaysidir konseptning tashkil etuvchisi bo‘lishi mumkin yoki boshqa konseptlar qat’iyat konseptining tashkil etuvchi belgilari sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.65.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 11.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati: - T.:“Universitet” nashriyoti – 2000, II jild; -530 b.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik: “Sangzor” nashriyoti, Jizzax – 2006
5. Волкова А. А. Языковая репрезентация гендерных и возрастных особенностей концепта "beauty" в англоязычных текстах рекламы косметики // Современные научные исследования и инновации. 2015. № 12.
6. O‘TIL: - T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006; I-V tomlar.
7. Muhayyo Hakimova. (2024). The Influence of National Thinking on the Formation of Abstract Vocabulary. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(5), 447–450.